


Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik


2018 yilning yanvar-iyunida 1,6 mingta yangi kichik korhona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,4 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korhona va mikrofirmalar savdo sohasida (26,8 %), sanoat tarmog'ida (16,5 %), qurilishda tarmog'ida (12,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (15,6 %), yashash va ovqatlanishda (7,5 %), tashish va saqlashda (3,4 %) tashkil etilgan.

2018 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




2018 yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yeqtalarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).



2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yeqtalarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Termiz shahrida 17,8 birlikda, Oltinsoy tumanida 14,2 birlikda, Termiz tumanida 12,7 birlikda, Boysun tumanida 10,3 birlikda, Muzrabot tumanida 9,7 birlikda va Sherabod tumanuda 9,3 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 7-9 birlik oralig'ida Angor, Qiziriq, Sarioaiyo, Denov, Jarqo'rg'on va Uzun tumanlarida aniqlandi. Qumqo'rg'on tumaniida 6,5 birlikda va So'rchi tumanida 6,4 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

**Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga.**



2016 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 6,7 birlikda bo'lib, 2017 yilda 8,7 birlikni tashkil etdi. 2018 yilda bu ko'rsatkich 12,8 birlikka yetdi. Bu esa, 2016 yil ko'rsatkichidan 6,1 birlik yuqori.

**2018 yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning
hududlar bo`yicha ulushi
(% da)**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>
Surxondaruo viloyati	41,3	81,8	72,9
Termiz shahri	45,1	93,3	46,2
tumanlar:			
Angor	41,2	100,0	87,0
Boysun	99,9	100,0	93,4
Denov	42,6	90,3	95,8
Jarqo'rg'on	25,6	100,0	88,3
Qumqo'rg'on	31,2	60,0	97,3
Qiziriq	34,2	96,4	98,7
Muzrabot	49,8	100,0	96,5
Oltinsoy	100,0	100,0	98,5
Sariosiyo	48,8	35,2	96,4
Termiz	98,8	100,0	93,8
Uzun	71,4	100,0	97,2
Sherabod	53,3	60,1	95,1
Sho'rchi	20,1	100,0	97,2

Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Oltinsoy (100,0 %), Boysun (99,9 %), va Termiz (98,8 %) tumanlari tashkil etadi.


Qurilishda Angor (100,0 %), Boysun (100,0 %), Jarqo'rg'on (100,0 %) va Muzrabot (100,0 %) viloyatlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Qiziriq(98,7 %), Oltinsoy (98,5 %), Qumqo'rg'on (97,3 %), Sho'rchi va Uzun (97,2 %), Muzrabot (96,5 %), Sariosiyo (96,4 %) tumanlari tashkil etadi.


2018 yilning yanvar–iyunida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 528,8 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 41,3 %) yoki 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`sish sur`ati 107,2 % ni tashkil qildi;
- 692,7 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 30,7 %i) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`sish sur`ati 104,6 % ni tashkil qildi;
- 912,5 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 81,8 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`sish sur`ati 100,4 % ni tashkil qildi;
- 1825,1 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (respublika jami xizmatlar xajmining 72,9 %), 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`sish sur`ati 102,3 % ni tashkil qildi;
- chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 92,8% yoki 3870,5 mlrd. so`mi (o`sish sur`ati 3,1 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;
- 77,1mln. AQSh dollari (umumiyligi eksport hajmining 74,8 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 52,4 mln. AQSh dollariga yoki 75,5 % ga ko`p;
- avtomobil transporti yuk aylanmasining 5,6 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 89,8 %) ko`payishi ta`minlandi;
- yo`lovchi aylanmasining esa 0,8 % ga (umumiyligi yo`lovchi aylanmasining 97,3 %) ko`payishi ta`minlandi;

Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiyligi hajmiga nisbatan % da)




2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Termiz shahri (101,2 mlrd.so'm), Denov (84,7 mlrd.so'm) va Jarqo'rg'on tumani (71,0 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Muzrabotda (11,8 mlrd.so'm) va Angorda (17,4 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




**2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik
(biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur`ati**



Hududlar bo`yicha ko`proq chakana tovar aylanmasi hajmi Denov tumani (868,8 mlrd.so'm), Termiz shahri (716,0 mlrd.so'm) va Sho'rchi tumani hissasiga to'g'ri keladi.



2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur`ati




Hududlar bo`yicha ko`proq xizmatlar hajmi Termiz shahri (526,5 mlrd.so'm), Denov (385,6 mlrd.so'm) va Qumqo'rg'on (98,0 mlrd.so'm), tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2018 yil II - chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o`tkazildi. Unda 42 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma`lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 20,0 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 80,0 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo va xizmatlar sohasida – 33,0 % va 50,0 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 16,7 % va 66,7 %, sanoatda – 42,9 % va 57,1 %ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 16,6 %, xizmatlarda – 16,7 % va savdoda – 16,7 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil II–chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 42,9 % sanoat korxonalari, 91,0 % – savdo, 50,0 % – xizmatlar, 83,3% – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 80,0 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko`rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiyl iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.